

O'ZBEKISTON MILLIY INTERYER DIZAYNINING SHAKLLANISH BOSQICHLARINI DAVRLARGA BO'LIB O'RGANISH USLUBI

MOXIRA XUSANOVNA SHODIYEVA

tayanch doktorant

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Toshkent, O'zbekiston

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-6>

Annotatsiya: *San'atshunos olimlar o'zbek xalq amaliy san'atining tarixiy bosqichlarini aniqlash muhim ekanligini takidlab, davrlarga bo'lib o'rganishgan. Milliy interyer dizaynining shakllanishi bevosita amaliy-bezak san'ati bilan bog'liqdir. I ming yillikning birinchi yarmida ilk davlatchilik shakllarini yuzaga kelishi, o'rta asrlarda islom dinining kirib kelishi, oq qora fotosuratlarining paydo bo'lishi amaliy-bezak san'atida keskin o'zgarishlar bo'lganini Hakimov A, Nozilov D.A, Pugachenkova G.A, Pisarchik K.A kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston milliy interyer dizaynining o'ziga xos xususiyatlari, me'morchilikdagi o'rni hamda qadimgi davrdan boshlab XIX asrga qadar shakllanish bosqichlari yoritilgan va chuqur taxlil qilingan. Interyer dizaynini mamlakatimizda uzoq tarixga ega ekani va uning shakllanish bosqichida ayni bir davrga kerakli ma'lumotni izlash uslublari topilgan va tushuntirib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Afrosiyob, turar-joy, shaharsozlik, miniatyura, interyer dizayn, sopol buyumlar, tokchalar, bronza davri, o'rganish uslublari, fotoapparat.*

KIRISH

Asrlar davomida atrof-muhit va odamlar o'rtasidagi qulaylik va estetik yoqimli ta'sirni ta'minlash uchun binoning ichki qismi bezagiga alohida e'tibor qaratilgan. O'rta Osiyoda san'at, madaniyat, me'morlik, amaliy bezak san'ati qadimgi davrlardan boshlab bizgacha etib kelgan. Asosan naqqoshlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at turlari rivojlanib, har bir davrning o'ziga hos turmush tarzi va madaniyatini aks ettirgan.

XIX asrning o'rtalaridan sanoatlashgan mamlakatlarda o'rta sinf o'sib, yangi mavqeyini mustahkamlash va o'z boyligini ko'rsatish maqsadida interyer dizayn san'ati sezilarli darajada kengaydi. Uy jihozlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalar turli xil uslublarda to'liq uy jihozlarini taklif qiluvchi umumiy ichki dizayn va boshqaruvni o'z zimmlariga oldilar. Ushbu biznes modeli 1914-yilgacha rivojlandi, o'shanda bu masala ko'pincha mustaqil dizaynerlar tomonidan o'zlashtirildi. XX asrning o'rtalarida professional interyer dizaynining paydo bo'lishiga va yangi kasbning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Hozirda zamonaviy interyer dizayn uslublarida milliy interyer dizaynining uyg'unlashuvi yangi loyihalarning yaratilishiga sabab bo'lib, bu bizning o'tmishga nazar solishimiz kerakligini anglatadi. Shu sababli mutaxassislar o'zbek milliy interyer dizaynining shakllanishini o'rganish

maqsadida o'tgan barcha davrlarga yuzlanishlariga to'g'ri keladi.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda milliy interyer dizaynining o'ziga xos go'zalligi va betakrorligi, uning bir necha ming yillik taraqqiyot natijasidir. Milliy dizayn ham qadriyatlarimiz namunasi sifatida o'zligimizni namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bronza davrida ilk shaharsozlik sivilizatsiyasining jadal rivojlanishi kuzatilgan va ixtiro qilingan qurilish texnikasi, turar-joy va ibodatxonalarning me'moriy uslub va shakllarini ishlab chiqish, kulolchilik hunarmandchiligi keng qo'llanilishi, O'zbekistonning barcha hududlarida bosqichma-bosqich bir qator yirik tarixiy-madaniy hududlar shakllanadi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri – miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida zamonaviy O'zbekiston hududida bir necha yirik tarixiy-madaniy viloyatlar Baqtriya, So'g'd, Choch, Xorazm mavjud bo'lib, unda tarqalgan tizim va siyosiy hokimiyatga ega bo'lgan ilk davlatchilikning shakllarini kuzatish mumkin. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlanish asrlariga qadar O'zbekistonning bir qator hududlarida mahalliy qishloq, xo'jaligi maskanlari tashkil topadi. Qishloq xo'jaligi tumanlarining har birida tarqoq kichik qishloqlar bilan bir qatorda bir necha gektar maydon, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan ibodatxonalar qad ko'taradi. Ular yagona reja asosida qurilgan shahar turidagi muqim istiqomat manzillari, ichki sathida keng ko'cha, turar-joy mavzolari, hunarmandchilik va xo'jalik rastalari hamda ibodatxonalar shakllanadi.

O'zbekiston amaliy san'atining dastlabki namunalari qishloq xo'jaligi ekinlarining paydo bo'lish davriga to'g'ri keladi va ularning ishlab chiqilishi asosan hayotiy zarurat uchun mo'ljallangan badiiy bezakli buyumlar yaratish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan. O'zbekiston janubida bronza davridagi qishloq xo'jaligi madaniyatining ko'plab qadimiy yodgorliklari o'rganilgan.





Idish. Toshkent. III-IV asr Sopol kosa miloddan avvalgi V asr

Miloddan avvalgi XVII-X asrlarga oid Sopollitepa va Jarqo‘ton manzilgohlarini san‘atshunos olim Akbar Hakimov tomonidan batafsil o‘rganilgan. Bronzani o‘zlashtirish va kulolchilik charxining kashf etilishi hunarmandchilik ishlab chiqarishini takomillashtirishga, O‘zbekiston hududida urbanizatsiya jarayonini jadallashtirishga turtki bo‘ldi. Bu davrdagi aholi punktlari tarkibida shahar madaniyatining asoslari mustahkam qal‘a, otashgoh, ibtidoiy binolardan iborat turar-joy, ko‘chalar, hunarmandlar ustaxonalari joylashgan rastalar mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston madaniyatining ushbu davri sopol buyumlari, bronza, tosh va suyakdan ishlangan mahsulotlar bilan ifodalanadi. Jarqo‘ton, Sopollitepa (Surxondaryo) va Mo‘minobod, Chakka (Samarqand viloyati) va boshqa markazlardan topilgan ibodat, maishiy va marosim maqsadlaridagi turli xil sopol idishlar kulolchilik mahsulotini ishlab chiqarishdagi ustalarning mahorati va an‘analarning rivojlanish darajasini namoyish etadi. O‘zbekiston san‘atshunos olimlarining bir necha o‘n yillik izlanishlari O‘rta Osiyo yerlarida miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmidan bronza davrida ilk shaharsozlik sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi, turar-joy va ibodatxonalarning me‘moriy uslub-shakllarini ishlab chiqish orqali qurilish texnikalarini ixtiro qilinishi va ulardan foydalana boshlanishi, bronza va kulolchilik hunarmandchiligining keng qo‘llanilishi sababli aynan turar-joy hamda ibodatxonalarning ichki hamda tashqi bezagiga e‘tibor qaratilgan. O‘sha davr milliy interyer dizayni haqidagi ma‘lumotlarni arxeologik topilmalar orqali o‘rganganmiz. Arxeologik topilmalardan nafaqat maishiy hamda mehnat qurollari buyumlari balki devoriy suratlarda ham milliy interyer dizayn haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin bo‘lgan.

Ilk o‘rta asrlarga oid Varaxsha, Bolaliktepa, Afrosiyob saroylari, Panjikent ibodatxonalaridagi devoriy suratlar turli mavzu va xilma-xil kompozitsiyasi bilan interyerining jozibador, tantanavor bo‘lishiga hizmat qilgan. O‘rta asrlarda qurilgan saroy, masjid, xonaqoh va maqbaralar ham o‘zining tarhi, ichki va tashqi kompozitsion yechimi, devorlaridagi o‘ymakorlik san‘ati, o‘ta nafis naqsh yuzalari bilan o‘z davriga xos bo‘lgan me‘moriy an‘analarni saqlab qolgan.



Afrosiyob qal‘asining devoriy suratlari. VII-VIII asrlar

Arablar kelishiga qadar uy devorlariga syujetli suratlar chizilgan. Arablar istilosidan so‘ng uy devorlaridagi syujetli pannolar o‘rnini o‘simliksimon va geometrik naqshlar egallay boshlagan. O‘rta Osiyo ma‘muriy binolarida maxsus zallar, qabulxonalar rejalashtirilgan bo‘lib, ular boshqa xonalardan shinamligi, muhtasham badiiy bezaklari bilan ajralib turgan. II asrga oid Tuproqqal‘a saroyida niqob kiyib o‘yinga tushayotganlar zali, askarlar zali, g‘alaba zallari bo‘lgan. Bu zallar o‘z nomlariga mos holda bezatilgan. Jumladan, shohlar zali devorlarida devor bo‘ylab joylashgan Xorazm shohlari va ularning yaqin kishilari to‘da-to‘da qilib tasvirlangan.

Buyuk shoir Alisher Navoiyning “Sabai sayyor” asarida telba bo‘lib qolgan shoh Bahromni davolash maqsadida har xil serhasham, serjilo naqshu nigorga ega bo‘lgan yettita qasr qurilishi tasvirlanadi. Shuningdek, o‘rta asr miniatyura tasvirlarida mehmonxona, saroy, maktab, masjid, hammom kabi binolar ichki ko‘rinishi ham o‘z ifodasini topgan. Markaziy Osiyoda imorat interyeri go‘zalligiga tarixnavislar, siyosatchilar, shoirlar va rassomlar alohida e‘tibor berishgan.

Miniatyuralar bizga tarixdan so‘zlashini aytgan Pugachenkova G.A bu borada ko‘p ilmiy izlanishlar olib borgan. “Yuzi oydek, yuraklarni zab etuvchilikiga” Shayboniyxonni tashrif buyurishi nomli miniatyura asarida “sevishganlar juftligi yoki mashhur turmush qurganlarni tasvirlash O‘rta Sharqning miniatyurasida keng tarqalgan. Odatda ular lirik peyzaj, boy interyer yoki gullayotgan bog‘ning bejirim joylarida o‘tirgan

holda tasvirlanadi. Bu asarda rassom Shayboniyxonning yarim ko'chmanchi yashash muhitidagi dasht turmush tarzini aniq namoyon qilgan. Xon va qatnashuvchilarning yuzlari mongol irqi ko'rinishidagi, Dashti Qipchoq o'zbeklariga xos bo'lgan kiyimlar va bosh kiyimlar. Ularning gavdalari yirik, turishlari kamtarin, lekin rasm aniq va ranglarga boy" deb ta'riflagan.

XVI asr boshlarida Mullo Muxammad Shodi "Fatxnoma"da miniatyura asarlarini go'zal tasvirlangan




Shaybonixonni tashrif buyurishi Shaybonixon Samarqandni zabt etishi

Miniatyura vaqt o'tishi bilan shikastlangan, lekin o'zining kompozitsiyasi va tarixiy asos bo'lgani uchun u bilan qiziqishni saqlab kelmoqda. Dashti Qipchoq O'rta Osiyoning shimoliy-g'arbiy, cho'l mintaqasi o'zbeklarning hukmroni Shaybonixon 16 asrning boshlarida Temuriylar yerlarini bosib oladi. Ularning asosiy shahri Samarqand to'rt oylik qamalda bo'lib, temuriylar avlodining oxirgi vakili Zaxiriddin Bobur tomonidan himoya qilinadi. Shaybonixonning shaharning Temir darvozasi (Axanin) yonidagi hal qiluvchi hujumi g'alabaga olib keldi va Bobur qochishga majbur bo'ldi. Bu voqeani ikkitalik miniatyura "Fatxnoma" o'z aksini topgan. Bu yerda Samarqandning mustahkam devorlari va himoyalangan darvozalari, devorlarda esa oxirgi himoyachilar tasvirlangan, darvozadan shaharliklar haydab chiqarilgan, o'zbeklar hujum qilmoqda, o'ngda Shaybonixon ot ustida turib buyruq bermoqda.

Dostonning oxirgi qismida Shodi g'olibga tarannum aytmqda va bu asarda rassom tomonidan Shodining holati kuchli tasvirlangan.

"Yusufning qullikka sotilishi" miniatyurasida voqea shahar muhitida sodir etiladi. Rasmning oldi qismida jo'shqin imo-ishora qilayotgan savdogarlar va kuzatuvchilar (ular o'rta osiyoliklarning kiyimlarida, bittasi esa xindcha), tiz cho'kib o'tirgan kampir. Ular uch qavatli binoning yonida, orqada yana bir bino va tog' ko'rinadi. Portal kirish yonida suyanib Yusuf turibdi, boshining orqasida oltin alanga, bu uning avliyoligining belgisi. Tom ustida bir ayol Yusufga sinchiklab kuzatyapti, yana ikkitasi uydan chiqib muralayotgan bekasiga qarab turibti. Bu Zulayxo, Yusufga bir qarashdan zavq va sevgiga intilishni his etmoqda.



Yusufning qullikka sotilishi. 1615 yil Temur huzuridagi qabul. 1568 yil

"Temur huzuridagi qabul" miniatyura asarida esa devorlari bezatilgan ayvonda taxt ustida Timur o'tiribti. Rasmda uning yuzi yillar o'tishi bilan o'chib ketgan, lekin u oldingi davrdagi dunyo hukmronining haqiqiy portretini tasvirlagani dargumon. Atrofida gullayotgan gulzorlar, ikki tomonda ham daraxtlarning bahorgi gullashi, gilamlarda mexmonlar o'tirishibti, oldingi qismda esa musiqachilar ularni kuylar bilan quvontiryapti, hizmatkorlar taomlar va sharbatlarni

keltirmoqda. Miniaturani 15 asrdagi an'anaviy kompozitsiyalarni takrorlagan o'rtacha qobiliyatli rassom chizgan.

Arablar hujumidan keyin O'rta Osiyoda islom dinining kirib kelishi, tariximizda katta burilish bo'ldi. Hamma sohalar kabi tasviriy san'at, me'morchilik, amaliy bezak san'atida butunlay yangilanish bo'lib, xalqning turar-joyi, turmush tarzi, hatto xona ichki bezaklari kabi barcha san'at turlari miniaturada aks ettirildi. O'sha davrning eng ishonchli ma'lumotlarini musavvirlar miniaturada asarlarida mo'yoqalam orqali tasvirlagan.



XIX asr 30-yillarida fransiyalik Jiro, kassetasi katta bo'lgan yog'och fotokamerani ko'plab ishlab chiqardi, 1842-yilda esa Germaniyada metall korpusli fotoapparat ishlab chiqarila boshlandi. 1888-yili amerikalik ixtirochi J.Istmen dunyoda birinchi marta rolikka o'ralgan fotoplyonka o'rnatilgan fotoapparat yaratdi. Bu kashfiyotlar XVIII-XIX asrlardagi O'zbekistonda jamoat va turar-joy binolarning ichki bezaklarida qanday milliy interyer elementlarini qo'llanilgani hamda ularning holati haqida oq qora fotosuratlarda ko'rib, aniq tasavvurlarga ega bo'lish va taxlil etish imkoniyatini berdi.



Samarqand, 1928-1933. Xoji Abdulaziz Abdurasulov shogirdlar davrasida.


Foto: Dmitriy Pojarishenskiy

Milliy interyerimizda har bir xona devorlarida mayda va chuqur tokchalar mavjud bo'lib, asosan buyum qo'yish uchun mo'ljallangan, biroq ulardagi bo'shliqlar xonada aks-sadoni kuchaytirish, kuy va qo'shiqlarning jarangdor chiqishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.




Turli shakl va o'lchamdagi tokchali uzun devorlar. XIX asr

Rossiyalik etnograf A.K.Pisarchik Samarqand shahar atrofidagi uy-joylar, qo'rg'onlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni yig'ish uchun 1968 yil kuzida Samarqandga qisqa sayohatni arxitektor V. L. Voronina tomonidan 1938 yilda birinchi marta me'mor B. N. Zasytkin tomonidan tuzilgan dasturi asosida Farg'ona vodiysi shaharlarida xalq uy-joylarning qurilishi va milliy interyer dizayn san'ati bo'yicha materiallar to'plagan. Samarqanddagi ishi Farg'onada boshlangan ishlarning davomi edi. Samarqandda ham N.S.Polupanov suratchi va I.P.Zavalin ishtirokida xalq me'morchiligi bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. 1937 yilda arxitektor A.N.Arefiyev tomonidan tadqiqot olib borildi. 1938 yilda A.K.Pisarchik ham unga qo'shildi. 30-yillarning oxirlarida O'rta Osiyo xalq me'morchiligi va amaliy bezak san'ati o'rganilmagan tomonlarini material sifatida u ko'zdan kechirgan turar-joy binolari, mahalla masjidleri, shahar atrofidagi uylarni 150 dan ortiq chizma va fotosuratlarda jamlagan.



Devordagi quyma panno. XIX asrning oxiri-XX asrning boshi



*Mehmonxona devorida tirlangan naqsh bilan
bezatilgan tinpan pannosi. XIX asr*

Xalq turar-joy me'morchiligida ko'proq mehmonxona badiiy bezagiga katta e'tibor qaralib, eshik, shift, ustunlar asosan yog'och, ganch o'ymakorlik san'atidan foydalanilgan holda betakror naqshlar bilan bezatilgan.

Olib borilgan tadqiqotga ko'ra quyidagi natijalarga kelindi:

- O'zbekiston milliy interyer dizaynining shakllanishi bosqichlari har bir davrda o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli o'tgan asrlardagi bilimlarni o'rganishni yanada optimallashtirish maqsadida 3 davrga bo'lindi:

1. Qadimgi davr.
2. Islom davri.
3. Hozirgi davr.

- Qadimgi davr. I ming yillikning birinchi yarmidan V-VIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr interyer dizayn haqidagi ma'lumotlarini arxiv topilmalar, devor rasmlari, arxeologik topilmalar orqali ega bo'lish mumkinligi aniqlandi.

- Islom davri. Aynan milliy interyer dizaynining shakllanishi IX-XVIII asrlarga to'g'ri kelib, arablarning istilosidan keyingi davr musulmon dinining kirib kelishi bilan bog'liq bo'lib, tarix va madaniyatimizning tub o'zgarishi sababli miniatyura san'ati shakllanadi. O'sha davrlarda chizilgan miniatyura asarlari katta qiymatga ega bo'lib, bu asarlarda asrlar madaniyati, san'ati,

dizayni namoyon etilganligi, hozirda bizga har bir davr milliy interyer dizayni haqida asosiy hamda ishonchli ma'lumotlarni beruvchi manba hisoblanadi.

- Hozirgi davr. XIX asrda fotoapparatning kashf etilishi insoniyatga ko'p imkoniyatlar berdi. Shu davr haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun fotosuratlar muhim o'rin egalladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dizaynerlik san'ati qadimdan ma'lum bo'lib, inson turmushida ishlatadigan barcha xalq amaliy bezak buyumlari bir-biridan farq qilgan. Chunki har bir voqa hunarmandlari o'z tushunchalari bo'yicha qulaylik hamda go'zallikka intilganlar. Mana shu hunarmandlarimiz yasagan buyumlar o'zbek milliy interyerimizning asosiy milliylik mazmunini beruvchi amaliy bezak san'ati namunalari hisoblanadi. Keltirilgan faktologik materiallar asnosida milliy interyer dizayn shakllanish bosqichlarini uch davrga bo'lindi va har bir davrning o'ziga mos o'rganish uslublari ko'rsatildi. Endilikda dizaynerlarimiz O'zbekiston milliy interyer dizayn tarixini o'rganganlarida albatta davrlarga e'tibor berishlari, aynan shu davrlarga xos izlanish uslublaridan foydalangan holda o'z maqsadlariga erisha oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.К.Писарчик. Народная архитектура Самарканда XIX-XX веков. Душанбе, 1975 г.
2. Пугаченкова Г.А. Среднеазиатские миниатюры 16-18 веков в избранных образцах. Главная редакция энциклопедий. Т., 1994.
3. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me'morchiligida interyer. O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2005 y.
4. Hakimov A., Nosirova Z., Nodir B. O'zbek xalq amaliy san'ati. O'quv qo'llanma. LESSON PRESS nashriyoti. T., 2019.
5. Hakimov A. O'zbekiston san'ati tarixi. "Zilol buloq" nashriyoti. T., 2022.
6. Шодиева М.Х. УНИКАЛЬНОСТЬ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ДИЗАЙНА ИНТЕРЬЕРА. Miasto Przyszłości, vol.46. 2024.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Fotoapparat>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Interyer_dizayni